

**“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

NARIMOV RAVSHANBEK ANARMETOVICH

**NAMUNA OLIH JARAYONINI O‘RGANISH VA NAMUNA OLIB
CHIQISHNI OSHIRISH MUAMMOLARINI HAL QILISH**

04.00.11 – Quduqlarni burg‘ilash va o‘zlashtirish texnologiyasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO•K: 622.243.572

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Narimov Ravshanbek Anarmetovich

Namuna olish jarayonini o'rganish va namuna olib chiqishni oshirish
muammolarni hal qilish..... 3

Наримов Равшанбек Анарметович

Исследование процесса отбора зерна и решение проблем повышения
выноса зерна..... 21

Narimov Ravshanbek Anarmetovich

Investigation of the core selection process and problem solving increasing
core removal..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

**“O'ZLITINEFTGAZ” AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

NARIMOV RAVSHANBEK ANARMETOVICH

**NAMUNA OLISH JARAYONINI O'RGANISH VA NAMUNA OLIB
CHIQUISHNI OSHIRISH MUAMMOLARINI HAL QILISH**

04.00.11 – Quduqlarni hurg'ilash va o'zlashtirish texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3624. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.liting.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximov Anvarxodja Akbarxodjiyevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Akilov Jahon
texnika fanlari doktori, professor

Matyakubov Marim Yusupovich
texnika fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi "O'ZLITINEFTGAZ" AJ huzuridagi DSc.23/25.08.2021.T.136.01 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «14» 03 soat 10⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871)280-67-00, faks: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Dissertatsiya bilan "O'ZLITINEFTGAZ" AJ Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 280-67-00; faks: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ daqiqa №__ - raqamli reyestr buyonnomasi)



U.S.Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

R.U.Shafiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik Ilmiy kengash kotibi
texnika fanlar doktori, katta ilmiy xodim

A.A.Zakirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda dunyoda ustuvor vazifalardan biri innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan kern namunalarni olish orqali konlar to'g'risidagi geologik ma'lumotlarni ko'paytirishdir. Yangi neft va gaz konlarini ochishni rivojlantirish cho'kindi tog' jinslaridan hosil bo'lgan massivlarda quduqlarni burg'ilash sur'atini oshirishga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun chuqurlikda joylashgan neft va gaz konlarini aniqlash, ularning ishlab chiqarish hajmini belgilash maqsadida qatlamlardan namunalarni burg'ilab olish uchun takomillashgan konstruksiyaga ega tebranishlarni kamaytiruvchi yangi burg'ilash snaryadi va kallagini joriy qilish eng dolzarb masalalardan biri ekanligini ta'kidlash lozim. Shunga muvofiq burg'ilash snaryadi konstruksiyasini takomillashtirish, burg'ilash kallagini yaratish va yuvuvchi suyuqlikni tanlash nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoda mavjud korxonalar tomonidan kern namunalarni olish uchun skvajinalarni burg'ilab o'tish masalalarini maqsadli o'rganishga, kern namunalarni skvajinadan sifatli olib chiqishga, kern olish materialini tanlash bo'yicha chora-tadbirlar, metodologiya va texnologiyalarni qo'llashga, kern qabul qiluvchilarni va burg'ilash kallaglarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan kern olish uskunolari va har xil turdagi burg'ilash kallaglarining turli kern olish usullari va ishlanmalarini ishlab chiqishga va bu sohadagi muammolarni hal qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda neft va gazga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga ortib borayotganligi sababli uglevodorod xomashyosini qazib chiqarishni oshirish uchun yangi maydonlarni izlash, yangi konlar ochish va yangi skvajinalarni burg'ilash talab etiladi, buning uchun geologik asoratlarning oldini olish va skvajinalarni muammolarsiz burg'ilash bo'yicha zamonaviy ilg'or texnologiyalar va dasturiy majmualarni rivojlantirish va joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida "Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash"¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, turli kon-geologik sharoitlarga qarab, mavjud kern oluvchi uskunolari bilan kern chiqarishning kamayishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va kernni olib chiqishda foydalaniladigan kern asboblarning yangi namunalarni ishlab chiqish, shuningdek, yangi texnologiyalarni yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi №PF-116 "Ma'muriy islohotlar doirasida tog'-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-oktabrdagi №PF-6319 "Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 9-iyul 2019-yildagi №PQ-4388 "Aholi va iqtisodiyotni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni.

energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 23-iyuldagi №PQ-4401 "Yer qa'rini geologik o'rganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021-yillarga mo'ljallangan mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va ko'paytirish davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan masalalarni bajarishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kern olib chiqishni oshirishning ilmiy muammolari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar va dunyodagi yetakchi ilmiy muassasalar tomonidan hal qilinmoqda. Ularning barchasi quduqning kon-geologik sharoitlaridan kelib chiqib, har bir uchastka uchun kern namunalari olish qurilmalarini qayta ishlash va takomillashtirish masalalarini hal qiladi.

Mamlakatimizning yetakchi olimlari ham bu masalani o'rgangan va o'rganmoqda ulardan A.K. Raximov, U.J.Mamajanov, B.L.Steklyanov, G.S.Abdullayev, Sh.X.Umedov, A.A.Rahimov, Y.P.Namikosov, M.R.Nurmatov, Y.I.Irgashev, T.K.Qoraboyev, K.M.Muxitdinov, O.S.Omonov va boshqalar o'z izlanishlari natijasida kern namunalari olish vositasi, burg'ilash kallagi va butlovchi qismlarni takomillashtirish orqali kern namunalari olish hajmini oshirishga erishganlar.

Turli markadagi burg'ilash kallaklari bilan namunalarning yaxlitligini saqlaydigan kern qazib olish asbobini yaratishga: Y.A.Edelman, I.I.Barabashkin, M.G.Abramson, B.I.Losev, M.L.Rubinshteyn, M.I.Vorozhbitov, S.V.Nikitin, V.F.Nikolayev kabi chet ellik olimlar katta hissa qo'shgan.

Hozirgi vaqtda ko'plab olimlar va turli kon-geologik sharoitlarda kernlarni sifatli olib chiqish sabablarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar VNIIBT, OAJ Burservis, MChJ Radius-Servis, MChJ AES Burintex, IGIRNIGM davlat muassasasida amalga oshirilishiga qaramasdan burg'ilash kallaklari bilan namunalarning yaxlitligini saqlaydigan kern qazib olish asbobini yaratish yetarlicha o'rganilmagan.

Yuqorida ko'rsatilganlarni hisobga olgan holda barcha kern asboblarida kern burg'ilash kallagi yoki burg'ilash karonkalar qattiq qotishmali po'latdan tayyorlangan tishlar bilan jihozlangan bo'lib ilgari kern oluvchi snaryadlar va sharoshkali burg'ilash dolotalar Rossiya, Xitoy va AQSHda ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan va import qilinganligi sababli burg'ilash kallaklari bilan namunalarning yaxlitligini saqlaydigan kern qazib olish asbobini yaratish jarayoni muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda kernlarni olib chiqishni ko'paytirishga imkon beradigan kern namunalari olish vositalarini muntazam takomillashtirish jarayoniga qaramay,

ushbu turdagi ishlarning maksimal samaradorligiga erishish uchun innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish talab etiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlarning barchasiga muvofiq namunalarning yaxlitligini saqlaydigan kern qazib olish uchun burg'ilash kallagini yaratish va asosiy namuna olish vositasining tarkibiy qismlarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "IGIRNIGM" davlat muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №13-16 NHK "Qiyin sharoitlarda asosiy kern olish uchun asosiy kern olish vositasining yangi konstruksiyasini ishlab chiqish" (2016); №16-18 NGG "Texnik hujjatlarni ishlab chiqish va asosiy kern olish uskunalari uchun butlovchi qismlarni ishlab chiqarish" (2018); №22-19 NGG "Texnik hujjatlarni va mahalliy burg'ilash kallaklarining tajriba namunalari ishlab chiqarish va import qilish" (2019); №633-21 T "Istiqbolli neft va gaz zonalaridan kern namunalari olishda foydalaniladigan kern oluvchi snaryadni loyihalash va ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish" (2021) kabi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi neft va gaz uchun izlov va qidiruv quduqlarini burg'ilashda asosiy namuna olish asboblarining yangi konstruksiyalarini yaratish orqali kern chiqarishni oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli kon-geologik sharoitlarga qarab, maxsuldor qatlamlardan mavjud kern uskunalar bilan kern chiqarishning kamayishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

tadqiqot qilinayotgan gorizontlardan yuqori sifatli kernni olib chiqish sharoitini yaxshilash uchun foydalaniladigan kern asbobi va burg'ilash kallagi konstruksiyasilarini optimallashtirish maqsadida tajriba standini ishlab chiqish;

yuqori sifatli kern chiqarishni oshirishda yuvuvchi suyuqliklarning kern chiqishiga ta'sirini, qo'llanilayotgan dolotaning turiga va burg'ilash rejimiga bog'liqligini aniqlash;

murakkab kon-geologik sharoitlar uchun kern namunalari olish jarayonida snaryadning tebranishini kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish chiqindilari asosida belgilangan xususiyatga ega yuvuvchi suyuqlik tarkibini ishlab chiqish;

murakkab kon-geologik sharoitlardagi burg'ilash intervallarida izlov va qidiruv quduqlaridan yuqori sifatdagi kern namunalari burg'ilab olish texnologiyasini yaratish;

kern namunalari burg'ilab olish uchun yangi ishonchli kern namunalari oluvchi snaryadini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida turli xil bo'sh va yoriqli cho'kindi jinslar joylashgan mahsuldor qatlamlardan kern olib chiqish foizini oshirish olingan

Tadqiqotning predmeti burg'ilash jarayonida kern oluvchi snaryad, kern qabul qiluvchi quvurlar, kern ushlagichlar, kern uzgichlar va moylash hususiyatiga ega bo'lgan burg'ilash suyuqligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning asosiy usullari analitik va tajriba kompleks tadqiqotlar, haqiqiy ishlab chiqarish burg'ilash materiallarini tahlil qilish, yangi kimyoviy reagent qo'llanilgan kern namunalari olishda quduqlarni geologik

va geofizik tadqiqotlarni tahlili, shuningdek, kern namunasi olish snaryadini siqilishi va geologik asoratlarning oldini olish uchun o'pirilish, torayish va yopishish kabi materiallarni matematik statistika qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yorilgan, maydalangan va ezilgan jinslar oraliqlari uchun mavjud kern olish snaryadlaridan foydalanish, kernni 60% gacha olib chiqishni ta'minlagani uchun kern olish snaryadini loyihalashda yangi yondashuv ishlab chiqilgan;

kern namunalarini olish bilan burg'ilash rejimiga, kern sirtlarining barqarorligini ta'minlash va moylash qobiliyati tufayli kern olish asbobining chidamliligini saqlab qolish uchun burg'ilash suyuqligi sifatiga bog'liq talablarni ishlab chiqish zarurligi asoslangan;

ishlab chiqilgan tajriba stendi yordamida aniqlangan yumshoq va qattiq tosh bo'laklarini to'liq yoki qisman siqib chiqaradigan kern ushlagichining konstruksiyasi qo'llaniladigan kuchga bog'ligi aniqlangan;

moylash xususiyatiga ega bo'lgan yangi ishlab chiqilgan burg'ilash suyuqligi ta'sirida burg'ilash kallagining uzoq muddat ishlashini ta'minlashi tajriba o'tkazish yo'li bilan aniqlangan;

kern olish moslamasining yangi konstruksiyasini va yuvuvchi suyuqlikning yangi optimal tarkibini qo'llash asosida kern tanlash bilan burg'ilash texnologiyasi ishlab chiqilgan va kern chiqishini ko'paytirish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'rganilatotgan quduq intervallar uchun kernni maksimal olib chiqish va saqlashni ta'minlaydigan, quduqning geologik ma'lumotlarining sifatini yaxshilaydigan kern kesgich va 3 xil turdagi tog' jinsi qattqlik turiga qarab har xil qalinlikdagi (0,4–0,2 mm) kern ushlagichi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan burg'ilash kallagi va snaryad qismlari yordamida burg'ilash tezligini oshirishga va shunga mos ravishda burg'ilash ishlarining narxi sezilarli darajada pasayishi aniqlangan;

kernni maksimal olib chiqishni oshiradigan OGS va OGSL yordamida yuvuvchi suyuqligining yangi optimal tarkibi ishlab chiqish orqali kern olish vositasini moylash va quduq devorining barqarorligini ta'minlashga erishilishi aniqlangan;

orqali turli kon-geologik sharoitlarda neft va gaz konlarini qidirish uchun kernni to'liq yer yuzasiga olib chiqish va ishonchli geologik ma'lumotlarni olish imkoniyati beruvchi yangi kern olish snaryadi va texnologik rejimlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi geologik asoratlarni oldini oluvchi ishlab chiqarish chiqindilari asosida tayyorlangan yuvuvchi suyuqligi va yangi burg'ilash kallagini qo'llab 80-97% gacha kern olish, shuningdek texnologik rejimlarni "O'zburneftegaz" AJning aniq obyektlarida joriy etish natijalari bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati quduqni burg'ilash va uning narxini pasaytirmaslik uchun qo'llanilayotgan kern asboblari samarasizligining asosiy sabablarini aniqlash, qazib olish ishlarini yakunlashni tezlashtirishda yangi

konstruksiyani ishlab chiqish va turli kon-geologik sharoitlarda burg'ilash usullari va rejimlarini tanlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quduqning geologik ma'lumotlarini o'rganish samaradorligini oshirishga imkon bergan kern olish snaryadi, kern asboblari majmuasi va uni qo'llash texnologiyasini yaratish va sanoatda keng qo'llash bilan ishlab chiqarish tashkilotlari uchun ahamiyatliligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Namuna olish snaryadining tarkibiy qismlarini, kern namunalarini olish rejimlarning texnologik parametrlarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ishlab chiqilgan konusli burg'ilash kallagi va yangi, tarkibida kimyoviy reagent bo'lgan yuvuvchi suyuqlikning qo'llash texnologiyasi Garbiy Haqqul konining №5, Ultan maydonining №1, Karamoy konining №1 va Chorikul hududining №3 quduqlarida joriy qilingan ("O'zbekneftgaz" AJning 2024 yil 23 avgustdagi №23/1-957-sonli ma'lumotnomasi). Natijada murakkab kon geologik sharoitlarda kern olib chiqish ko'rsatgichini 97 foizgacha yetkazish imkonini bergan;

murakkab geologiya-qidiruv quduqlarini burg'ilash jarayonida kern olib chiqishni oshirish uchun konussimon burg'ilash kallagi ixtirosiga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan patent olingan (SAP01552, 14.07.2016 y., № FAP 02137, 28.02.2022 y.) Natijada, maksimal kern olib chiqishga erishilgan va moddiy-texnik resurslarni 55% gacha tejash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, ulardan 3 ta patent, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda jami 6 ta, shundan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari tafsiflangan, predmeti va usullari bayon qilingan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy etilishi ochib berilgan, e'lon qilinganligi, ishning hajmi va tuzilmasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Kern oluvchi asboblardan foydalanish tahlili va yuvuvchi suyuqlik yordamida kernlarni olib chiqish texnologiyasi" deb nomlangan birinchi bobida turli chuqurlikdagi turli geologik uchastkalarda kern olish uchun mavjud kern asboblari ko'rib chiqilgan. Ma'lumki so'nggi o'n yilliklardagi ilmiy muhandislik fikrlar neft va gaz quduqlarni burg'ilashda qo'llaniladigan yangi burg'ilash uskunalari va texnologiyalarini takomillashtirish va

yaratishga qaratilgan. Xususan, burg'ilash texnikasi va texnologiyalarini takomillashtirishning turli yo'nalishlari va usullari, quduqlarni kern namunalari olish bilan burg'ilashda burg'ilash dastgohlari va burg'ilash kallaklaridan foydalanish samaradorligi masalalari o'rganildi.

Kern namunalari konlarning asosiy qimmatli ma'lumot manbaini ifodalovchi materiallar hisoblanadi. Bunda ko'pgina amaliy muammolarni hal qilish kerak jumladan: kon uchastkasining geologik tuzilishini o'rganish, tog' jinslarining mexanik va boshqa xususiyatlarini aniqlash, neft va gaz zahiralari hisoblash, mahsuldor qatlama ta'sir qilishning eng samarali usullarini tanlash va boshqalar. Asosiy materialga aniq ehtiyojga qaramay, uni olish muammosi hali ham mavjud va keyingi yechimni talab qiladi. Singan jinslardagi kern namunalari olish uning yoriqlar yo'nalishi bo'yicha sinishi, olib chiqish foizining kamayishi, shuningdek, tez-tez tiqilib qolishi kichik siqilishlar bilan tavsiflanadi. Jinslardagi yoriqlar va sinishlar jinslarning fizik va mexanik xususiyatdan, tarkibi va tuzilishining holati turlichaligi tufayli yuzaga keladi. Ayniqsa, qiyin sharoitlarda, bir burg'ilash reysda kern o'tish 1-2 m dan oshmasligi mumkin, ko'tarish operatsiyalarini bajarish uchun ko'tarish tushirish sonining ko'payishi vaqtinchalik katta yo'qotishlarga olib keladi. Yemirilishga moyil bo'lgan tog' jinslarida kern namunalari olish eng qiyin vazifadir. Zaifsementlangan, yumshoq qumtosh jinslarda ishlashda asosiy salbiy omil burg'ilash suyuqligidir. Burg'ilash suyuqligi oqimining ta'siri kernga kuchli ta'sir ko'rsatib kern diametrining kichrayishi bilan namunani kam olib chiqishga sabab bo'lishi mumkin. Ayrim qirqimlarning konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqib, quduqni burg'ilashda ko'p hollarda o'prilishlar va to'kilishlar ko'rinishidagi asoratlar uchrab turadi. Kern namunalari olish paytidagi bunday asoratlar quduq tubiga yaqin zonada yoki ochiq joylarda to'planishiga olib keladi. Natijada, maydalangan tog' jinslari kern qabul qilish trubasiga kirib, kernning erkin harakatlanishiga, o'tishiga to'sqinlik qilib tiqilib qolish, maydalanib ketish va kern olib chiqishni kamayishiga olib keladi. Tadqiqotlar asosida burg'ilash kallagining ishlashi bilan qo'zg'atiladigan tebranishlar va burg'ilash tizmasi pastki qismidagi tebranishlar, ham aylanma, ham turbinali burg'ilashda, kern namunalari olishda nomuvofiqlik aniqlandi. Bunday nomuvofiqlik asosiy namuna olish zonasida sezilarli tebranishlarning ortishiga, uning yo'q qilinishiga va burg'ilash paytida texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keladi.


Buxoro-Xiva mintaqasi va O'zbekistonning boshqa neft va gazli hududlarida kern namunalari Nedra, Silur, Tengiz va Kembriy tipidagi kern namunalari olish uskunalari yordamida amalga oshirilgan. Ushbu snaryadlar diametrlari $\varnothing 164/80$ mm, $140/67$ mm, $127/67$ va $127/60$ mm snaryadlarni uzunligi 8-10 metrli. Uch parrakli burg'ilash kallagi SZ, to'rt parrakli burg'ilash kallagi ST, olti parrakli burg'ilash kallagi TKZ va karonka sifatli burg'ilash kallagi BIT diametrlari $\varnothing 187,3/80$ mm, $\varnothing 187,3/40$ mm, $\varnothing 158,7/67$ mm, $\varnothing 139,7/67$ mm va $\varnothing 139,7/60$ mm. Kern qabul qiluvchi quvurlarning diametri $\varnothing 73-90$ mm. Kern qabul qiluvchi trubkasi kern uzgich va kern ushlagichi bilan jihozlangan. Ushbu snaryadlar mahsuldor qatlamlardan kern namunalari olish uchun ishlatilgan. Kern namunalari olish oralig'i quduqni burg'ilash loyihasiga muvofiq, geologiya-qidiruv tashkilotlarining

geologik xizmati tomonidan belgilangan, bunda snaryadning aylanishi rotor tomonidan amalga oshirilgan.

So'nggi yillarda "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatining maydonlarida 20 dan ortiq qidiruv quduqlaridan kern namunalari olish ishlari diametri 164 mm, 140 mm, 127 mm va Nedra, Silur, UKR tipidagi kern olish uskunasi va 6VK-SZ uch sharoshkali burg'ilash kallaglari yordamida olib borilgan. 2014-2015-yillarda esa Buxoro-Xiva hududi bo'yicha kern olish ishlari 6 VK turdagi burg'ilash kallagi yordamida olib borilgan.

Dissertatsiyaning "Yuvuvchi suyuqlikdan foydalanib tajriba stendi yordamida kernni olib chiqish uchun kern oluvchi snaryadning konstruksiyasini optimallashtirish" deb nomlangan ikkinchi bobida kern olish asboblarning konstruksiyalari tajriba stendini yaratish bilan optimallashtirildi va ishqalanishni kamaytirishga qarshi OGS va OGSi, reagentlarini o'z ichiga olgan yuvuvchi suyuqligining moylash xususiyatlari aniqlandi.

Kern ushlagich, kern uzgich va prujinalarning (kern qabul qiluvchi trubaning osma bloki) turli konstruksiyalarini dastgoh sinovlaridan o'tkazish uchun gidravlik tajriba stendi yaratildi (1-rasm).



1-rasm. Kernni olib chiqish uchun gidravlik tajriba stendi:

- 1 – yuqori balka; 2 – prujinali kern ushlagichi; 3 – gidravlik silindr; 4 – manometr; 5 – reduktor; 6 – elektr yuritgich; 7 – kern; 8 – tokchalar; 9 – kern ushlagich tanasi; 10 – pastki balka.


Dastgoh sinovlarining maqsadi kernga qo'llaniladigan kuchlarni, turli jinslarning kernni "maxkam tortib olish", kern ushlagichlarini yopish, kern qabul qilish trubasining osma bloki prujinasining siqish kuchini tajriba o'tkazish orqali aniqlashdir. Yo'naltiruvchi trubaning chiqib ketish burchagini aniqlash, bu kuchli kernning jipslashishini va prujinali qismlarning yumshoq kern bilan to'liq bir-biriga yopishishini ta'minlaydi. Yumshoq jinslarning ham, qattiq jinslarning ham kern ajratishning prujina bo'laklarini to'liq yopish, shuningdek, prujinali kern ushlagichini yopish imkoniyatini aniqlash uchun dastgohda sinovlari o'tkazildi. Yo'naltiruvchi trubaning chiqib ketishi bilan kern ushlagichining konstruksiyasi sinovdan o'tkazish natijasida kernning ajralishi (alevolitosh, argillit – 6 kgf/cm^2 , ohaktosh – 5 kgf/cm^2 da, gil jinslar – 4 kgf/cm^2 da) aniqlandi va kern ushlagichining tishlarini yopish $3-5 \text{ kgf/cm}^2$ kernli haydovchiga kuchi orqali amalga oshirilishi aniqlandi. Sinov paytida diametri 78 mm, 66 mm va 50 mm bo'lgan kern materiallari ishlatilgan. Kern tutqichlarining sinovlari, yumshoq va qattiq tosh kernlarini olib chiqish va ushlab turishni ta'minlaydigan kern qabul qilish moslamasi konstruksiyalari variantlaridan birini tanlash imkoni berdi.

Kern ushlagichining sinovlari turli xil jinslarning kernlarini ajratish va ushlab turishni ta'minlaydigan qalin qisimli prujinali kern uzgich diametri 164/80 mm bo'lgan "KOS" o'tkazgich asbobi uchun uning konstruksiyasini tanlash imkonini bergan. Qattiq va juda qattiq jinslardan kern olishda qalinligi 0,4 mm bo'lgan 65G po'latdan yasalgan prujinali kern ushlagichlar va yumshoq jinslardan kern olish uchun qalinligi 0,3-0,35 mm va 0,2-0,25 mm bo'lgan metallardan yasalishi tavsiya etilgan.


Dissertatsiyaning "Quduq devorlarining barqarorligini ta'minlash uchun yuvuvchi suyuqlik tarkibi va kern oluvchi snaryadni ishlab chiqish" deb nomlangan uchinchi bobida "Nedra", "Kembriy", "Silur", "UKR", "Tengiz", "Rif", "Mag", tipidagi asosiy snaryadlarining konstruksiyalari, shuningdek, tabiiy va sintetik olmosdan tashkil topgan MSZ, SZ, ST, TZ, TKZ olmosli, rolikli, konusli burg'ilash kallaklari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida "KOS" tipidagi kern



2-rasm. Parrakli konusimon burg'ilash kallagi: 1-kern uchun g'ovak, 2-suyuqlik kanali, 3-kesgich, 4-korpus




4-rasm. Silindrsimon burg'ilash kallagi: 1-kern uchun g'ovak, 2-suyuqlik kanali, 3-kesgich, 4-korpus




3-rasm. Oltiparrakli konussimon burg'ilash kallagi kern olish vositasi ("KOS")

- 1 – sozlash vinti;
- 2 – sozlash gayka;
- 3 – yuqori ulagich; 4 – shar (Ø 40,8 mm); 5 – shar uyasi; 6 – kern qabul qiluvchi quvur; 7 – tana; 8 – kern uzgich; 9 – kern ushlagich; 10 – konussimon burg'ilash kallagi.

asbobi va 6-LBK-MSZ tipidagi konussimon burg'ilash kallagi, shuningdek, "KOS" burg'ilash asboblari bilan birgalikda 2-7-rasmda ko'rsatilgan "PDC" tipidagi innovatsion silindrsimon burg'ilash kallagi ishlab chiqildi. "KOS" tipidagi kern oluvchi asbobning ishlab chiqarishga joriy etish uchun, 6-LBK-MSZ tipidagi konusli burg'ilash kallagi va "PDC" tipidagi silindrsimon burg'ilash kallagini va boshqa burg'ilash kallaglari amalda prujinali kern ushlagichlardan yasalgan. Takomillashtirilgan prujinali kern ushlagich va "KOS" kern namunasini olish vositasining umumiy ko'rinishi 8, 9-rasmda ko'rsatilgan. Foydali qazilmalarni qidiruv tashkilotlaridagi ma'lumotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki kern namunalarini olish jarayonida, burg'ilashda kern tanlash bilan burg'ilash snaryadi yopishib qolishi xavfi ortib, ko'pincha burg'ilash snaryadni siqib qoladi va sinib qolishi mumkin, natijada, kernning bir qismi quduq tubida qoladi va maydalanadi, bu esa burg'ilash va kern namunalarini olish tezligini pasaytiradi.



7-rasm. Silindrsimon burg'ilash kallagi va prujinali kern ushlagichi Kern oluvchi asosiy asbob (KOS): 1 – sozlash vinti, 2 – sozlash gayka; 3 – yuqori ulagich; 4 – shar (Ø 40,8 mm); 5 – shar uyasi; 6 – kern qabul qiluvchi quvur; 7 – tana; 8 – kern uzgich; 9 – prujinali kern ushlagich; 10 – silindrsimon burg'ilash kallagi.




6-rasm. Silindrsimon burg'ilash kallagi bilan Kern olish vositasi (KOS): 1 – sozlash vinti; 2 – sozlash gayka; 3 – yuqori ulagich; 4 – shar (Ø 40,8 mm); 5 – shar uyasi; 6 – kern qabul qiluvchi quvur; 7 – tana; 8 – kern uzgich; 9 – kern ushlagich; 10 – silindrsimon burg'ilash kallagi.




5-rasm. Takomillashtirilgan prujinali kern ushlagich: 1-prujinali kern ushlagich; 2-korpus.

Shuning uchun, kern namunalari bilan burg'ilashda, burg'ilash kallagini quduq tubidan ajratmaslik tavsiya etiladi.



8-rasm. "PDC" tipidagi burg'ilash kallagi

1- kern uchun g'ovak,
2 - suyuqlik kanali,
3 - kesgich, 4- korpus



9-rasm. "PDC" burg'ilash kallagi bilan kern namuna olish vositasi ("KOS"): 1 - sozlash vinti; 2 - sozlash gayka; 5 - shar uyasi; 6 - kern qabul qiluvchi quvur; 7 - tana; 8 - kern uzgich; 9 - prujinali kern ushlagich; 10 - PDC tipidagi burg'ilash kallagi

1-jadval

Asosiy namuna olish uchun ishlab chiqilgan vositalardan foydalanish natijalari

№ n/n	Kon yoki hudud nomi	Quduq raqami	Burg'ilash oralig'i, m	Asosiy namunalar bilan burg'ilash, m	Kernni olib chiqish	
					M	%
1	Niyozxon	1	2778-2780	2	0,6	30
2	Ruboiy	6	3498-2499	1	0,5	50
3	Mirkomilquduq	1	2590-2592	2	1	50
4	Matonat	3 O3	2227-2229	2	1,5	55,5
5	G'arbiy Xaqqul	6	2756-2459	3	3	100

Eslatma: Rossiyada ishlab chiqarilgan 187,3/40 ST o'lchamlari bo'lgan to'rt parrakli burg'ilash kallagini jihozlash uchun biz ishlab chiqqan KSR-40 kern ushlagichi va kern uzgichdan foydalanish natijasida kernni olib chiqish 57% ni tashkil etdi.

Ishlab chiqilgan "KOS" burg'ilash asbobi "MSZ" va "PDC" tipidagi 6-LBC burg'ilash kallagi bilan birgalikda kern namunalarini olish uchun quduqlarni burg'ilashda va maydonlarda ishlatilgan. Olingan natijalar 1-5-jadvallarda keltirilgan.

2-jadval
O'lchamlari 187,3/80, 158,7/67, 139,7/60 mm bo'lgan 6 LBC konusli MSZ tipidagi silindrsimon burg'ilash kallagini joriy etish natijalari

№ n/n	Kon yoki hudud nomi	Quduq raqami	Burg'ilash oralig'i, m	Asosiy namunalar bilan burg'ilash, m	Kernni olib chiqish	
					M	%
1	Kokdumaloq	III	4726-4725	1	0,25	25
2	Shortak	1	2512-2515	3	1,5	50
3	Talduquduq	1	2873-2874	1	0,70	70
4	Tuproqqala	1	1734-1736	2	1,5	75
5	Erkin	2	1289-1290	1	1	100
6	Sovligar	4	3605-3607	2	1	50
7	Chakkakum	4	2190-2192	2	1,5	75
8	Murodtepa	4	2801-2805	4	3,5	87,5
9	Tumaris	2	1955-1957	2	2	100
10	Yangi Umid	2	2731-2732,7	1,7	1,7	100

Eslatma: Ishlab chiqilgan konussimon burg'ilash kallagi 5-LBK turi "MSZ" diametri 187,3/80, 158,7/67, 139,7/60 mm. burg'ilash kallagidan foydalanish natijasida kern olib chiqish 73% ni tashkil etdi. Konussimon burg'ilash kallagi uchun SAP 01552-raqamli "Sanoat namunasi" patent olindi.

Qo'llash natijalari asosida kernning bir qismi quduq tubida qoladi va maydalanadi, buning natijasida vaqt behuda ketadi va kern yig'ish bilan burg'ilash tezligi kamayadi.

Asosiy namunalar olib burg'ilashda, burg'ilash kallagini pastki qismdan ajratishning oldini olish kerak, bu esa kern olib chiqishning yuqori foizini ta'minlaydi. Belgilangan burg'ilash rejimiga rioya qilmaslik past ko'rsatgichli kern olishga olib keladi. Buning sababi snaryad korpusi va burg'ilash kallaklari yoki kesuvchi qismlari bo'lishi mumkin.

3-jadval

O'lchamlari 187,3/80 va 139,7/60 mm bo'lgan MSZ tipidagi silindrsimon burg'ilash kallagini joriy etish natijalari

№ n/n	Kon yoki hudud nomi	Quduq raqami	Burg'ilash oralig'i, m	Asosiy namunalar bilan burg'ilash, m	Kernni olib chiqish	
					M	%
1	Isavoy	2	3627-3628	1	0,4	40
2	Andakli	2	2515-2520	5	4	80
3	Janubiy Kulbeshkak	-	2602-3606	4	4	100
4	Chordarboza	3	2861-2862	1	1	100
5	Dultatepa	2	1717-1718	1	1	100
6	Janubiy Kulbeshkak	4	2080-2083	3	2	66,6
7	Sulaymontepa	1	1661-1666	5	4	80
8	Shorkum	2	2471-2475	4	3,5	87,5
9	Sulaymontepa	1	1772-1777	5	4,5	90
10	Tumaris	6	2061-2065	5	4	80

Eslatma: Silindrsimon burg'ilash kallagi turi MSZ 2019-2020 yillarda kernlarni olib chiqish 84% ni tashkil etdi. Silindrsimon burg'ilash kallagi turi MSZ uchun EC-01-002231 va EC-002339 raqamli mualliflik guvohnomasi olindi

Kern olish bilan burg'ilovchi neft va gaz qidiruvi tashkilotlaridagi asosiy muammoni o'rganish shuni ko'rsatdiki, burg'ilovchi burg'ilash snaryadining siqib qolish xavfi borligi uchun ko'pincha burg'ilash kallagini pastki qismdan ajrtib tashlaydi. Shu muammodan voz kechib 6-LBK tipidagi "MSZ" burg'ilash kallagining eng qoniqarli qo'llanilishi 2-sonli Tumaris va 2-sonli "Yangi Umid" quduqlarida kuzatilgan va ulardan 100 foizgacha kern namunasi olishga erishilgan.

4-jadval

Silindrsimon "MSZ" burg'ilash kallagi va prujinali kern ushlagichi bilan burg'ilash natijalari

№ n/n	Kon yoki hudud nomi	Quduq raqami	Burg'ilash oralig'i, m	Asosiy namunalar bilan burg'ilash, m	Kernni olib chiqish	
					M	%
1	Andakli	6	2071-2074	3	2,5	83,3
2	Kattatepa	2	2153-2157	4	3,5	87,3
3	Temirkazgan	1	2485-2489	4	4	100
4	Kattatepa	2	2492-2495	3	3	100
5	Chetkum	1	2392-2398	6	6	100

Eslatma: Takomillashtirilgan silindrsimon burg'ilash kallagi turi MSZ va prujinali kern ushlagichlarni, kern olish jarayonida foydalanilganda kern olib chiqish 2021-yilda 94% ni tashkil etdi. Takomillashtirilgan silindrsimon burg'ilash kallagi turi MSZ va prujinali kern ushlagichiga ega bo'lgan EC-01-002418 mualliflik guvohnomasi olindi.

Jadval va 1-5-rasmlardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqilgan kern asbobi, MSZ va PDC tipidagi 6-LBK burg'ilash kallaglari, shuningdek, takomillashtirilgan prujinali kern ushlagichi cho'kindilardan kernning 97 foizini olib chiqishga imkon bergan, biroq, bo'sh, shishgan, juda g'ovaklardan tashqari ko'pgina jinlar yorilib, yuvilgan suyuqlik bilan eroziyalangan.

Kern namunasini olish bilan burg'ilashda, yuqori filtratsiyaga ega bo'lgan yopiq doirada aylanib yuruvchi burg'ilash suyuqligi kernni yuvadi. Bo'shshagan va eroziyaga moyil jinlarda kern sifati hajmini oshirish uchun ushbu tadqiqot OGS va OGSL, kern asbobi, "PDC" tipidagi silindrsimon burg'ilash kallagi va prujinali kern ushlagichini o'z ichiga olgan yuvish suyuqliklaridan foydalanishni tavsiya qiladi.

OGSL paxta sovuni zahiralarning qoldiq yog kislotalari va paxta po'stlog'ining lignin bilan gidrolizlanishi natijasida hosil bo'lgan chiqindilardan olinadi. Kern olishni oshirish maqsadida sirt faol moddalarning gil zarrachalarining o'zaro ta'sirini aniqlash va "PDC" tipidagi silindrsimon burg'ilash kallagi va prujinali kern ushlagichni qo'llashda yuvish suyuqligini OGS va OGSL kimyoviy reagentlar bilan ishlov berish tavsiya etilgan.

5-jadval

Yangi kern oluvchi snaryad konsruksiyasi bilan barcha qismlarini ishlatishdan olingan natijalar

№ n/n	Kon yoki hudud nomi	Quduq raqami	Burg'ilash oralig'i, m	Asosiy namunalar bilan burg'ilash, m	kernni olib chiqish	
					M	%
1	Andakli	11P	2367-2371	4	4	100
2	Andakli	11P	2453-2458	5	5	100
3	Andakli	11P	2577-2552	5	4	80
4	Chetkum	4	2212-2218	6	6	100
5	Kimmerekum	1	2173-2178	5	5	100
6	Kimmerekum	1	2545-2550	5	5	100

Eslatma: Takomillashtirilgan silindrsimon burg'ilash kallagi turi MSZ va prujinali kern ushlagichlarni, kern olish jarayonida foydalanilganda kern olib chiqish 2022-2023-yillarda kernlarni olib chiqish 97% ni tashkil etgan. Kern oluvchi uskuna va butlash qismlari (burg'ilash kallagi turi PDC, prujinali kern ushlagich) uchun FAP-02137-sonli foydali modelga patent olindi.

OGSL paxta soapstoklarining yog' kislotalarining kubik qoldiq'idan va lignin bilan paxta sirt yuzasidan gidrolizi chiqindilaridan olinadi.

Bo'shshagan va eroziyaga moyil bo'lgan jinlarda tarkibi sifatini yaxshilashni oshirish uchun ushbu tadqiqotda yadro qobig'iga sirt faol moddalarni ta'siri o'rgangan holda yuvish suyuqliklaridan foydalanish tavsiya etiladi.




Jadvalda OGSL (sirt faol moddasi) bilan yuvuvchi suyuqligining texnologik parametrlarini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan (6-jadval).

6-jadval

Texnologik parametrlarning organik birikmalar (sirt faol moddalar) konsenratsiyasiga bog'liqligi

OGS ning suvli eritmasi (sirt faol moddasi) tarkibi	Yuvish suyuqligining texnologik parametrlari				
	zichlik, g/sm ³	shartli yopishqoqlik	suv yo'qotilishi sm ³ /30 min	qobiq mm	pH
5 foizli emulsiya	1,05	8	13	-	5
10 foizli emulsiya	1,01	0	10	-	5
15 foizli emulsiya	1,02	3	9	-	0
20 foizli emulsiya	1,03	6	6	-	0
25 foizli emulsiya	1,04	9	5	-	0

Aniqlanganidek, konsenratsiyaning 5 dan 25% gacha oshishi bilan suyuqlik zichligi va nisbiy yopishqoqligi oshadi, suyuqlik yo'qotilishi kamayadi va pH nolga tushadi. Binobarin, OGS va OGSL burg'ilash suyuqligining suyuqlik yo'qotilishini kamaytirishga yordam beradi va quduqning barqarorligiga ta'sir qiladi, kern namunalarini olishda barqarorlikni saqlaydi. Olingan texnologik ko'rsatkichlar bo'yicha OGS emulsiyasi yuvish suyuqligining optimal konsenratsiyasi 15% ni tashkil qiladi, shu bilan birga, 20-25% da texnologik parametrlarning yaxshi natijalari ham olingan, emulsiyaning kamchiligi yuvuvchi suyuqliklarda sirt faol moddalarning ko'payishi hisoblanadi.



10-rasm. Nasos unumdorligining kernni olib chiqishga bog'liqligi foizda ifodalanshi: a - jinsning lagun tipi; b - qoyaning rif turi; c - jinsning depressiya turi

Fizik-kimyoviy xususiyatlarni har tomonlama o'rganish bilan yuvish suyuqligini oqilona tanlash mumkin. Haqiqiy sharoitda sirpanish yuzalarida va yuvuvchi suyuqligining o'zida sodir bo'ladigan burg'ilash kallagining mexanik, fizik va kimyoviy jihati juda murakkab va xilma-xildir, bu tribologik tadqiqotlarda fizik usullardan to'liq foydalanishni qiyinlashtiradi 10-rasm.

Shundan kelib chiqqan holda, yuvuvchi suyuqligini o'rganishning kompleks metodologiyasini tanlashda, haqiqiy sharoitda yuvuvchi suyuqligining tabiati va ta'sir mexanizmini bilish yetarli.

Dissertatsiyaning "Ishlab chiqilgan texnologiyadan olingan natijalarni "O'zbekneftgaz" AJ konlariga tegishli quduqlarida amaliy tadqiqod o'tkazish" deb nomlangan to'rtinchi bobida quduqning umumiy o'tkazuvchanligining 3-25 foizini tashkil etadigan kern namunalari bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Neft va gaz sanoatidagi burg'ilash korxonalarida bu ko'rsatkich 20-40% ni, unumdor gorizontlar oralig'ida esa 5-10% ni tashkil qiladi. So'nggi yillarda qazib olinadigan kernning diametri, kern olish vositasi, kern qabul qilish quvurlari va burg'ilash kallaglariga qarab, 80-100 mm bo'ladi. Kernli oluvchi snayad uzunligi 80-100 metrliklardan foydalanish kernlarni olib chiqishni 50-60% ga oshirishga imkon bergan.

Burg'ilash bilan shug'ullanadigan burg'ilash xodimlari uni tanlashda kern yo'qolishining asosiy sababini bilishlari, tog' jinslari toifasiga muvofiq kern asbobini va burg'ilash kallagini tanlay olishlari kerak. Tog' jinslarining yuqori g'ovakligi, yorilishi, kavernoqligi va qatlamlanishi kernning buzilishi yoki eroziyasiga olib kelishi mumkin, bundan tashqari, chuqur quduqlarda qatlam bosimi ta'sirida kernning o'z-o'zini yo'q qilish sodir bo'ladi, shuning uchun, bo'ylama egilish, ko'ndalang va bo'ylama tebranishlar paydo bo'lishi uchun kern qattiq bo'lishi kerak, chunki kernni olib chiqish to'g'ridan-to'g'ri kern snaryadlari, burg'ilash kallagi va kern tutqichlarining konstruksiyasiga bog'liq. Bundan tashqari, kernni olib tashlash kern qabul qiluvchi trubadagi va pastki teshikdagi yuvish suyuqligining oqimiga, aylanish va kernga bo'ylama va ko'ndalang kuchlarning boshqa ta'siriga bog'liq. Turli maydonlarda va quduqlarda olib borilgan kern namunalarni olish tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ratsional burg'ilash rejimini yaratish bilan tog' jinslariga mos keladigan kern snaryadini tanlash kernni olib chiqishni oshirishga olib keladi.

Ishlab chiqilgan kern asbobi, burg'ilash kallagi va kern tutqichlarining iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$\Theta = \left(C_c \frac{B_n}{B_c} - C_n \right) A_n,$$

bu yerda Θ - kern asbobining iqtisodiy samaradorligi yoki kern namunalari bilan ratsional burg'ilash rejimi; C_c - 1 metr kern olish bilan bog'liq joriy ishlatish xarajatlar, so'm/m; C_n - joriy ishlatish xarajatlar, so'm/m; A_n - kern olish oralig'i, m; B_n, B_c - asosiy va yangi variantdagi kernni olib chiqish.

$$\frac{B_n}{B_c} = 2,0 \quad \Theta = (4\,000\,000 \cdot 2 - 7\,000\,000) \cdot 4 = 4\,000\,000 \text{ сум/м.}$$

Binobarin, komplektda yangi kernli asbobdan foydalanish har bir burg'ilash o'lchagich uchun 4 000 000 so'm/m ga tejamkorlikni ta'minlaydi.

XULOSA

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun “Kern olish jarayonini o‘rganish va kernlarni olib chiqishni oshirish muammolarini hal qilish” dissertatsiya mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. Turli xil murakkab kon va geologik sharoitlarga qarab foydalanilgan kern oluvchi snaryadi tomonidan kern olib chiqishni kamaytiruvchi omillar aniqlandi.

2. Kern olib chiqishni oshirish uchun qo‘llaniladigan burg‘ilash moslamasi va burg‘ilash jarayonida ishlatiladigan barcha boshqa elementlar (burg‘ilash kallagi, kern qabul qilish trubkasi, kern ushlagichi, kern uzgich) konstruksiyasiga bog‘liqligi aniqlandi va ilmiy asoslandi.

3. Tog‘ jinslarning bo‘kishi va kern namunasini olish jarayonida snaryadning tebranishini kamayishiga yuvuvchi suyuqliklarining ta‘siri aniqlandi.

4. Burg‘ilash kallagi, snaryad trubkasi, snaryad teshiklari va kern ushlagichlari kern chiqishini oshirish uchun takomillashtirildi va burg‘ilash jarayonida tebranishlarni kamaytiradigan va kernning sifatli shakllanishi uchun yangi silindrsimon burg‘ilash kallagi ishlab chiqildi.

5. Neft va gaz quduqlarida kern tanlash bilan burg‘ilashda ishlatiladigan kern yig‘ish snaryadlari, shu jumladan kern tanlash bilan burg‘ilash paytida tebranishni kamaytirish uchun “KOS” deb nomlangan kern yig‘ish snaryadlari ishlab chiqilgan, bu esa uni kernni yig‘ish trubkasida saqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, “PDC” va 6-LBK-MSZ burg‘ilash kallagi bilan birgalikda “KOS” kern yig‘ish snaryadlari bilan kern tanlash bilan burg‘ilash jarayonida quduqlarda sinovdan o‘tkazildi.

6. Strukturaviy, izlov va qidiruv quduqlarida kern tanlash bilan burg‘ilash texnologiyasi ishlab chiqilgan. OGS va OGSL moylash qobiliyatiga ega bo‘lgan yuvuvchi suyuqligining bir qismi sifatida foydalanish kernni tanlash bilan burg‘ilashda foydali ta‘sir ko‘rsatishi asoslandi.

7. Namuna olish uchun konning haqiqiy ma‘lumotlari asosida burg‘ilash rejimi tanlandi va bu esa 97% kern olib chiqishga erishish imkonini berdi.

8. Yangi kern oluvchi asbobdan kombinatsiyalangan holda foydalanishning iqtisodiy samarasi har bir kern oluvchi snaryad uchun 4000000 so‘m/metr miqdorigacha tejamkorlikka erishilishi aniqlandi.

РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.23/25.08.2021.Т.136.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АО “O‘ZLITINEFTGAZ”

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА

НАРИМОВ РАВШАНБЕК АНАРМЕТОВИЧ

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОТБОРА КЕРНА И РЕШЕНИЕ
ПРОБЛЕМ ПОВЫШЕНИЯ ВЫНОСА КЕРНА

04.00.11 – Технология бурения и освоения скважин

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2023.2.PhD/Т3624.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.liting.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Рахимов Анварходжа Акбарходжиевич,
доктор технических наук, доцент


Официальные оппоненты: Акилов Жахон
доктор технических наук, профессор
Матякубов Марим Юсулович
кандидат технических наук


Ведущая организация: Каршинский инженерно - экономический институт


Защита диссертации состоится «14» 03 2025 года в «10⁰⁰» часов на заседании разового Научного совета DSc.23/25.08.2021.Т.136.01 при АО «O'ZLITINEFTGAZ» (Адрес: 100029, г.Ташкент, ул. Тараса Шевченко, 2 тел.: (+99871)280-67-00; факс: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре АО «O'ZLITINEFTGAZ» (регистрационный № _____) (Адрес: 100029, г.Ташкент, ул. Тараса Шевченко, 2. тел.: (+99871)280-67-00; факс: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(реестр Протокола рассылки № ___ от «___» _____ 2025 года).


Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор


Р.У.Шафиев
Ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, старший научный сотрудник


А.А.Закиров
Председатель разового Научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время одной из приоритетных задач в мире является изучение геологической информации о месторождениях путем отбора проб керна с внедрением инновационных технологий. Открытия новых месторождений нефти и газа требует увеличения темпов бурения скважин в массивах, образованных осадочными породами. Поэтому отбор и вынос полноценного керна из пластов с целью выявления залежей нефти и газа, расположенных на больших глубинах, является одним из наиболее актуальных вопросов, решение которого требует разработки и внедрения бурового снаряда с улучшенной конструкцией и новой виброустойчивой буровой головкой, а также подбора к ним нового состава промывочной жидкости, обладающей высокими смазывающими свойствами и обеспечивающие устойчивость стенок скважины.

В мире особое внимание уделяется целенаправленному исследованию вопросов проходки скважин с отбором керна, качественного его выноса и решению задач по разработке мероприятий и технологий отбора керна материала, а также методики разработки керна бурового снаряда и комплектующих деталей. В связи с этим особое внимание уделяется разработке различных методов и разработок по извлечению керна оборудования для извлечения керна и различных типов буровых головок, а также решению проблем в этой области.

В республике в условиях роста потребности в нефти и газе из года в год требуется поиск, новых площадей, открытие новых месторождений и бурение новых скважин для увеличения добычи углеводородного сырья. Для этого необходимо уделять большое внимание развитию и внедрению передовых современных технологий и программных комплексов по предупреждению геологических осложнений и безаварийной проводке скважины. В Стратегии развития Нового Узбекистана определены важные задачи по «обеспечению бесперебойного снабжения нефтепродуктами отраслей экономики и населения»¹. Исходя из этого, определение факторов, влияющих на снижение выноса керна при существующих кернаотборных снарядах в зависимости от различных горно-геологических условий, а также разработка новых образцов инструментов кернаотборника, используемых для извлечения керна, имеют большое научное и практическое значение при строительстве скважин.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-116 от 27 июля 2023 г. «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере горнодобывающей промышленности и геологии в рамках административных реформ», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан, №УП-60 от 28 января 2022 г. «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»,

¹Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 г. «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

